



**Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” asarida
qo‘llangan ayrim frazeologizmlar tahlili**

Mavlonova Diyora Dilshodjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universiteti 1-bosqich talabasi

dilnoraomonova4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida qo‘llangan ba’zi frazeologik iboralarning ma’nosi tahlil qilingan va ularning asardagi o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazeologizm, frazeologik birlik, ibora, “Jaziramadagi odamlar”.

Adabiyotimizning zabardast vakillaridan biri Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romani nafaqat o‘z davrining dolzarb muammolarini qamrab olgani bilan emas, balki unda ishlatilgan so‘z va iboralar va nozik badiiy til jihatidan ham kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Adabiyotimizning go‘zal namunasi bo‘lgan ushbu asarda iboralar salmoqli o‘rin egallaydi.

Frazeologiya atamasi grek tilidagi ikkita so‘zdan, ya’ni “pharaseos”-ifoda va “logos”-so‘z kabilardan tashkil topgan. Frazeologiya sohasida o‘rganiladigan frazeologizmlar barcha tillarda o‘zlarining barqarorlik xususiyatlari bilan, nutq jarayonida ularni yasash uchun so‘z tanlash va ma’lum grammatik shakllarda ishlatish yo‘li bilan yasalmasdan, tayyor holda ishlatiladigan biroikdir. Ular ikki yoki undan ortiq so‘zning birikuvidan hosil bo‘ladi va ular birgalikda emotsional va ekspressiv ma’noni ifodalaydi.



“Jaziramadagi odamlar” asarida ko‘p o‘rinlarda frazeologik iboralar uchraydi va quyida ularning ba’zilariga izoh beramiz:

1. Qo‘l siltamoq- diqqat-e’tiboriga noloyiq deb topmoq. Ushbu ibora asardagi turli nuqtalarda uchraydi va yozuvchi har bir o‘rinda unga har xil ma’no yuklagan. Masalan, “Oldi-qochdi gap-so‘zlargq otam **qo‘l siltab** qo‘yar, har nechuk o‘qishimdan ko‘ngli to‘q edi.” Bu jumladagi ibora orqali adib, otaning o‘zgalrning gap so‘zlariga e’tibor qaratmasligi va ma’lum darajada farzandidan ko‘ngli to‘qligini kitobxonga yetkazmoqchi.

Shuningdek, yozuvchi quyidagi parchaga o‘zgacha ma’no yuklagan. “– Keyingi paytlarda ko‘p ko‘rinmay qoldingiz , bug‘alter buva,—dedi otam qo‘shiga choy quyib uzatarkan. E,e –deya **qo‘l siltadi** Fayzulla aka. –Davlatning ishini bilasiz-ku, Ergashboy..... Biz ham el qatori erta-yu kech idorada.” Bu orqali yozuvchi Fayzulla akaning davlat ishlaridan charchaganligi va uning behafsala kayfiyatini ifodalamoqchi.

2. Yoqa ushlamoq- nihoyatda ajablanmoq-ma’nosini bildiradi. Ushbu ibora asarning bir o‘rinida o‘zgacha ma’no ifodalagan. “Safarmurod paydo bo‘ldi-yu, tog‘ ovulimizning yosh-u qarisi “Yo, pirim” deb **yoqa ushlab qoldi**. Bu parchada yozuvchi iboraga ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasini qo‘shib, iboraning ma’nosini yanada orttiriyapti . Ushbu iborani qo‘llash va uning ma’nosini orttirish orqali yozuvchi o‘sha davrdagi xalqning ma’lum darajada soddaligini, ularning nihoyatda hayratlanayotganini ifodalayapti.

3. Jon kirgizmoq- ushbu iboraning har xil ma’nolari mavjud bo‘lib, quyidagi parchada u tetiklashtirmoq, jonlilashtirmoq ma’nosida qo‘llangan. “Otam o‘rtabo‘y, qotma kishi. Asabiy qimtilgan yuz paylari, baquvvat iyaklari allanechuk serjahl, tund ko‘rsatsa ham, gurunglarga **jon kirgizishda**, hazilkashlig-u hozirjavoblikda undan o‘zar topilmaydi.” Ushbu parchada yozuvchi “ota” ning hazilkashligi va gapga ustaligi orqali tadbirlarni jonlantirishini ta’kidlamoqda.

4. Razm solmoq- sinchikovlik bilan kuzatmoq.”—Shu qurg‘urning amal sotib oladigan puli bo‘lsa, mening tuvaklarim allaqachon tilladan yasalardi,—deya karillagan Safarmurod



chavandoz .– Ro‘zg‘orini qarang, ro‘zg‘orini..... Ro‘zg‘origa **razm solganlar** esa battar taajjublanar edi. Yuqoridagi jummalarda yozuvchi iborani sinchikovlik bilan kuzatmoq ma’nosida emas, balki qaramoq, nazar solamoq ma’nolarida qo‘llagan.

5. Chippakka chiqmoq- bekor bo‘lmoq. “ O’sha maktabni bitirayotgan yillardayoq ko‘pkari chopardi, o’sha kezlardayoq taniqli chavandoz edi. Shuning uchun ham u tentak, Maysara meniki bo‘ladi, deb karillab yurgan, ishongan-da o‘ziga! Tag‘in, Maysaraning chavandoz akasi bilan oshnachiligi bor edi. Lekin umidlari **chippakka chiqdi.**” Bu parchada adi ibora o‘z ma’nosini, o‘z holidek yuklagan.

6. Og‘zini ochirmoq- hayratlantirmoq, angraytirmoq.

7. Boshini qotirmoq-ko‘p jumboqli savollar va topishmoqlar bilan o‘ylantirib qo‘ymoq. “Toshbibi checha-allaqanday bo‘shang, xayolchan ayol. Lekin biz bolalar uni juda yoqitirara edik. U har xil ertak-cho‘pchaklar aytib **og‘zimizni ochirib tashlaydi**, goho turlik topishmog‘-u jumboqlar bilan **boshimizni xo‘b qotirardi.** Yuqoridagi parchada ikkita frazeologik birliklar joy olgan bo‘lib, ulardan biri bo‘lgan ”og‘zimizni ochirib tashlaydi” iborasi orqali Toshbibi xolaning juda ham ilmi va bu ilmlari orqali bolalarni hayratlantirishi tasvirlangan bo‘lsa, “boshimizni xo‘b qotirardi” iborasi orqali Toshbibi xolaning turli savollar bilan bolar bilimni sinamoqchiliga guvoh bo‘lamiz va ularni anchayin o‘ylashga majbur qilganiga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda, Luqmon Bo‘rixon o‘zining asarlarida iboralarni mukammal darajada qo‘llaydi. Xususan, adib “Jaziramadagi odamlar” romanida ham yuzlab frazeologik birliklarni qo‘llaydi va ularga go‘zal va qo‘shimcha ma’nolarni yuklaydi. Yozuvchining ushbu asari ham mavzu jihatidan, ham badiiy til jihatidan qaraganda tengsiz asarligiga yana bir bor amin bo‘ldik.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Luqmon Bo‘rixon. Jaziramadagi odamlar- Toshkent: Oltin qalam nashriyoti, 2024.
2. Sh. Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti- 2022.
3. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati- Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati-1992.
4. M.T.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish- Toshkent: Yangi asr avlodi- 2-nashr- 2009-124.